

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi Shaymanova Yulduz Toshniyazovnaning
“Tarjimayi hol. Grammatika: Nutq uslublari va uslubiy bo‘yoqdorlik”
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga**

TAQRIZ

Amaliy dars mavzusi “O‘zbek tili” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg‘ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan hamda uslubiy tomondan to‘g‘ri tashkil qilingan. Darsda mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, o‘qitish pedagogik texnologiyasi, tayanch so‘z va iboralar batafsil berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Taqdimotda belgilangan mavzu haqida to‘liq ma‘lumotlar qamrab olingan, adabiy nutq uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy uslub bo‘yicha ma‘lumotlar bilan boyitilgan. Amaliy mashg‘ulotda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali va o‘rinli foydalanilgan, shuningdek fanga yangicha yondashilgan, unda o‘zbek tilidan o‘qish, tinglab tushunish, yozish, so‘zlash ko‘nikmalari bo‘yicha ham topshiriqlar berilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek tili o‘qituvchisi Shaymanova Yulduz tomonidan tayyorlangan “Tarjimayi hol. Grammatika: Nutq uslublari va uslubiy bo‘yoqdorlik” mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
qoshidagi akademik litseyi Ijtimoiy
fanlar kafedrası mudiri**



G.Hotamova

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi Shaymanova Yulduz Toshniyazovnaning
"Tarjimayi hol, Grammatika: Nutq uslublari va uslubiy bo'yoqdorlik"
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga**

TAQRIZ

Mazkur amaliy dars mavzusi "O'zbek tili" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Mavzuga oid topshiriq va mashqlarni tanlashda talabalarning ta'lim yo'nalishi hisobga olinganligi ularning maqsadga muvofiqligini ta'minlash birga dars sifati va samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda mavzuning keng qamrovliligi hisobga olinganligi, boshqa fanlar hamda o'tilgan mavzular bilan bog'langanligi, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanganligi o'qituvchining tajribali pedagog ekanligini namoyish etadi. Tanlangan mashq va topshiriqlarning rang-barangligi va mavzuga mosligi darsning qiziqarliligini ta'minlaydi.

O'qituvchi Shaymanova Yulduz tomonidan tayyorlangan "Tarjimayi hol, Grammatika: Nutq uslublari va uslubiy bo'yoqdorlik" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni "O'zbek tili" fanining o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"O'zbek, rus tillari va adabiyoti"
kafedrasida katta o'qituvchisi**



S.H.Ulliyeva